

**ONGNING TUZILISHI VA UNING PSIXOLOGIK
JARAYONLARNI BOSHQARISHDAGI ROLI***Qo'qon Universiteti Andijon Filiali**Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi***Baxodirova Malikaxon Qobuljon qizi***baxodirovam049@gmail.com*

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada ongning psixologik mazmuni, shakllanishi va ontogenezda ongning rivojlanishi, uning tuzilishi, asosiy komponentlari, ongsizlik tushunchasi, ongning psixofiziologik asoslari, bilish jarayonlari, emotsional jarayonlar, Zigmund Freyd va Karl Yungning ong haqidagi nazariyalari, ong anglashga, fikrlashga va maqsadli faoliyat yuritish, bilim olish, tahlil qilish va qaror qabul qilish jarayonlarida muhim rol o'ynashi va inson o'zini ongi orqali anglashi haqida ma'lumot beriladi.

KALIT SO'ZLAR: ong, ongsizlik, men, tafakkur, emotsiya, xotira, idrok, instinkt, psixoanaliz, o'zini anglash.

KIRISH. Inson ruhiy hayotining eng murakkab, shu bilan birga eng ko'p o'rganilgan tushunchalaridan biri bu- ongdir. Psixologiya fanida ong insonning o'zini va atrof-muhitni anglash, voqelikni aks ettirish, uni qayta ishlash, unga munosabat bildirish hamda xatti-harakatni boshqarish imkonini beruvchi tizim sifatida qaraladi. Insonning bilish jarayonlari, tafakkuri, emotsiyalari, irodaviy faoliyati va xulq-atvori aynan ong orqali tartibga solinadi. Shu bilan birga, ong inson ruhiyatining yagona qatlami bo'lmay, uning ostida keng ko'lamdagi ongsizlik va ong osti jarayonlari yashirin holda faoliyat ko'rsatadi. Mavzuning dolzarbligi shundaki, ong faqat nazariy kategoriya bo'lib qolmay, insonning kundalik hayotidagi har bir qarori, emotsional holati, e'tibori, motivatsiya, o'rganish va xulq-atvorsiz faol bo'la olmaydi. Shuning uchun ongning tuzilishi, darajalari va funksiyalarini o'rganish psixologiya, pedagogika, tibbiyot, sun'iy intellect, neyrofanlar uchun ham muhimdir.

Ong- bu insonning real voqelikni aks ettirish va uni ongli tarzda boshqarish qobiliyatidir. U subyektiv tajriba shaklida namoyon bo'lib, insonning fikrlashi, e'tibori, xotirasi, idroki va o'zini anglash jarayonlari bilan uzviy bog'langan. Kishining ongi bizning tevarak-atrofimizni qurshab turgan olam haqidagi bilimlar majmuasidan tarkib topdi. Shunday qilib, ongning strukturasiga muhim bilish jarayonlari kiradiki, ular yordamida odam o'z bilimlarini doimo boyitib boradi. Bu jarayonlar qatoriga sezgilar va idrokni, xotirani, xayol va tafakkurni qo'shish mumkin. Sezgilar va idrok yordamida miyaga ta'sir o'tkazuvchi qo'zg'atuvchilarning bevosita aks etishi natijasida ongda borliqning o'sha momentda kishi tasavvurida hosil bo'lgan hissiy

manzarasi gavdalanadi. Xotira ongda o'tmish obrazlarini qaytadan gavdalandirsa, xayol ehtiyoj obyekti bo'lgan, ammo hozirgi paytda yo'q narsaning obrazli modelini hosil qiladi. Tafakkur umumlashgan bilimlardan foydalanish yo'li bilan masalaning hal etishini ta'minlaydi. Aytib o'tilgan psixik bilish jarayonlaridan istalgan birining batamom barbod bo'lishi u yoqda tursin, buzilishi yo izdan chiqishi ham ongning barbod bo'lishiga olib keladi.

Ogning ikkinchi ta'rifi- unda subyekt bilan obyekt o'rtasida aniq farqlanishining o'z ifodasini topishi, ya'ni odam "men" degan tushuncha bilan "men emas" degan tushunchaga nima tegishli ekanini aniq biladi. Tirik organizmlar dunyosida tarixida birinchi bo'lib, undan ajralib chiqqan va o'zini atrof muhitga qarama-qarshi qo'ygan inson o'z ongida ushbu qarama-qarshilik va tafovutni saqlab kelmoqda. Jonli mavjudotlar ichida uning o'zigina o'zini bilishga, ya'ni psixik faoliyatning o'zini tadqiq etishga yo'naltirishga qodir. Odam o'z xatti-harakatlarini va umuman o'zini o'zi ongli ravishda baholaydi. "Men" ning "men emas" dan ajratilishi har bir kishi bolaligida boshdan kechiradigan yo'l bo'lib, uning o'zini-o'zi anglashi jarayonida yuz beradi.

Ogning rivoji ikki yo'nalishda o'rganiladi: filogenez(insoniyat evolyutsiyasi) va ontogenez (shaxsning tug'ilishidan boshlab rivojlanishi).

Filogenezda og: Inson ogning paydo bo'lishi mehnat faoliyati, nutqning shakllanishi va ijtimoiy muhit bilan bog'liq. L.S.Vygotskiyga ko'ra og sotsial interaksiyalar orqali shakllanadi. Mehnat qurollaridan foydalanish, ijtimoiy muloqot va til evolyutsiyada ogning asosiy omillari bo'lgan.

Ontogenezda og: Bola ogning rivoji bosqichma-bosqich kechadi. J.Piage ta'kidlaganidek, kognitiv rivojlanish sensomotor bosqichdan abstrakt-mantiqiy fikrlashgacha o'sadi. Til bola ogning shakllanishida asosiy omildir- til orqali bola atrof-muhitni nomlaydi, tasniflaydi va tushunchalar hosil qiladi.

Ogning uch asosiy komponentlari mavjud:

1. Bilish jarayonlari-idrok, tafakkur, xotira, e'tibor, tasavvur
2. Shaxsiy tajriba-his tuyg'ular, emotsiyalar, xohishlar
3. O'zining anglash- shaxsning o'zini subyekt sifatida tanishi

Psixikaning quyi darajasi ongsizlikdan iboratdir. Ongsizlik-kishini o'zini tuta olmaydigan qilib qo'yadigan taassurotlar bilan bog'liq psixik jarayonlar, harakatlar va holatlar yig'indisidir. Psixik holat sifatidagi ongsizlik voqelikni aks ettirishning shunfay bir shakli hisoblanadiki, bunda harakat vaqti va o'rnini mo'ljal qilish yaxlitligi yo'qoladi, xatti-harakatning nutq yordamida boshqarilishi buziladi. Ongsizlikda, onglilikdan farqli o'laroq, kishi o'zi bajarayotgan harakatlarni maqsadga muvofiq tarzda nazorat qila olmaydi, ularning natijasini baholay olishi ham amri maholdir. Ongsizlikka quyidagi psixik hodisalarni kiritish mumkin: uyqu paytida yuz beradigan psixik hodisalar(tush ko'rish), sezilmaydigan, lekin haqiqattan ham ta'sir

ko'rsatadigan qo'zg'atuvchilarga ("subsensory" yoki "subseptiv") javob reaksiyalari oldinlari ongli harakat bo'lib, lekin takrorlanaverib avtomatlashib ketgan va shunga ko'ra endilikda anglanilmaydigan bo'lib qolgan harakatlar ; faoliyatga undovchi, ammo maqsad hissidan anglanmaydigan ayrim mayllar va hokazo. Ongsizlik hodisalariga bemor kishining psixikasida ro'y beradigan ba'zi bir patologik hodisalarni- alahlash, ko'ziga yo'q narsalar ko'rinishi va shu kabilarni ham qo'shish mumkin. Shularga asoslanib, ongsizlikni onga qarama-qarshi deb hisoblash, hayvonlarni psixikasiga tenglashtirish noto'g'ri bo'lar edi. Ongsizlik- bu kishining xuddi ong kabi o'ziga xos psixik qiyofasidirki, u kishi miyasida borliqning yetarli darajada bir xil bo'lmagan, qisman aksi tarzida inson hayotining ijtimoiy shart-sharoitlari bilan bog'liq holda paydo bo'lgandir.

K.Yung nazariyasi:

Yung ongsizlikni 2 ga bo'lgan: shaxsiy ongsizlik; kollektiv ongsizlik- jamiyat va madaniyatda avloddan-avlodga o'tuvchi arxetiplar.

Ongsizlik psixik hayotning o'ng tomonidan nazorat qilinmaydigan, biroq faol ta'sirga ega bo'lgan jarayonlar majmuidir. Z.Freyd psixoanaliz nazariyasida psixikani "ong-ong osti- ongsizlik" tuzilmasi sifatida tasvirlaydi.

Freydning qarashlari:

Ong-faqat ichki qism;

Ong osti-repressiya qilingan istaklar, xotiralar

Ongsizlik-shaxsiyatning asl energiyasi saqlanadigan qatlam

Psixoanaliz-psixoterapiya metodi va Zigmund Freyd tomonidan rivojlantirilgan psixologik ta'limot. Ongsiz psixik jarayonlar va motivatsiyani diqqat markaziga qo'yadi. Psixoanaliz nazariyasiga ko'ra, 3 xil psixik instinktlar hukm surishi mumkin: g'ayrushuriy "U" (Id)- mayl doirasi; turli himoya vositalari bilan "U" ning impulslarini cheklovchi shuriy "Men" (Ego); "O'ta-Men" (Super-Ego)- ijtimoiy taqiqlar, qonun tusiga kirgan majburiy tartib qoidalar. Freydning fikricha, "Men" reallik tamoyiliga asoslangan holda inson psixikasida harakatlanuvchi qarama-qarshi kuchlarni muvofiqlashtirish vazifasini bajaradi. Inson o'zining qadimgi ajdodlaridan irsiy yo'l bilan o'tgan instinktiv mayllarning namoyon bo'lishi tufayli faoldir.

Psixoanaliz ta'limotining vazifalaridan biri- ongsizlik sohasidagi "kompleks"larni aniqlash va ularni aniqlashga yordamlashishdan iborat.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, ong faqatgina fikrlash jarayoni emas, balki bizni biz qiluvchi, hayotimizdagi ma'noni tushunishimizga, dunyoni anglashimizga imkon beruvchi cheksiz koinotdir. U har bir insonning o'ziga xosligi va butun insoniyat tajribasining o'zagidir. Aynan ong orqali biz borliqni idrok etamiz, his-tuyg'ularimizni yashaymiz, orzu qilamiz va ijod qilamiz. Ong- bu nafaqat tana ichidagi ruh, balki haqiqatni shakllantiruvchi, doimiy o'zgarib turuvchi va rivojlanuvchi kuchdir. Uning

chuqurligini anglashga intilish bizni abadiy izlanishga chorlaydi, chunki u o'z ichida butun bir olamni mujassam etgan sirli va mo'jizaviy hodisadir

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. P.I.Ivanov, M.E.Zufarov- "Umumiy psixologiya"-2008
2. F.I.Xaydarov, N.I.Xalilova-" Umumiy Psixologiya"-2009
3. E.G'oziyev- "Umumiy psixologiya "-2008
4. Z.I.Nishanova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullayev, M.X.Xolnazarova- "Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya"-Toshkent-2008
5. R.Zokirova-"Psixologiya asoslari"-Toshkent 2008
6. 6.Z.Freyd- Tarjimon-X.Alimov " Psixoanaliz haqida beshta ma'ruza"- Toshkent-2019.